

# ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AAOIFI STANDARTLARINI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

*Bektemirov Muhiddin Shomirza o'g'li<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** *Islom moliyasi dunyosi tobora kengayib bormoqda va bu jarayonda AAOIFI tashkiloti islom moliya institutlari uchun hisobot va audit standartlarini ishlab chiqish, islom moliyaviy amaliyotlarini tartibga solish va rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu maqolada AAOIFI tashkiloti, uning institutsional a'zolari va AAOIFI standartlarini O'zbekistonda joriy etish istiqbollari hamda AAOIFI va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash masalalari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar :** *AAOIFI, Markaziy bank, Islom moliyasi, standartlashtirish, sertifikat, kadrlarni tayyorlash.*

## **Kirish**

Islom moliya sektori dunyo bo'ylab sezilarli darajada o'sib bormoqda. Ushbu sekordagi jami aktivlar qiymati 2022-yilda 11 foizga o'sib, 4,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi<sup>2</sup>. Dunyoning 70 dan ortiq mamlakatida faoliyat yuritayotgan Islom moliya muassasalari moliyaviy tartibga solish va nazorat qilishda global standartlarni joriy etishni taqazo qilgan edi. Shu nuqtai nazardan, Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) tashkiloti bu yangi yo'nalishda standartlarni o'rnatuvchi muassasa vazifasini bajarishga kirishdi. Hozirgi kunda AAOIFI va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtasidagi hamkorlik mamlakatimizda islom moliya institutlarini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada AAOIFI va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashning ahamiyati, imkoniyatlari va istiqbollari keng qamrovli tarzda tahlil qilinadi.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada AAOIFI tashkiloti, uning maqsadlari, Islom moliya sanoatini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilingan bo'lib, yurtimizda yangi potensial yo'nalish sifatida qaralayotgan islom moliyasi sohasini amaliyotga joriy etishda imkon qadar kam xatolarni qilish, mavjud xalqaro tajribadan unumli foydalanish, resurslar, jumladan inson va kapital resursidan oqilona foydalanib "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ko'rsatilgan maqsadlardan biri – O'zbekistonda kamida 3 ta islom bankini ochishga huquqiy zamin yaratishda nimalarga e'tibor qaratish hamda AAOIFI standartlarini joriy etishning afzalliklari ochib berish maqsad qilingan.

## **AAOIFI tashkiloti haqida**


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi o'qituvchisi



AAOIFI 1990-yil 26-fevralda Jazoirda Islom moliya muassasalari tomonidan imzolangan Uyushma (hamkorlik) shartnomasiga muvofiq tashkil etilgan va 1991 yil 27 mart kuni Bahraynda rasman ro'yxatga olingan. Islom taraqqiyot banki, Dallah Al-Baraka, Faysal Group (Dar Al Maal Al Islamic), Al Rajhi Banking & Investment Corporation, Kuwait Finance House hamda Al-Buxoriy jamg'armasi AAOIFIning ta'rischilari hisoblanishadi. Bugungi kunda ushbu tashkilotga 45 dan ortiq mamlakatlardan jami 161 ta institutlar, jumladan, markaziy banklar, islom moliya muassasalari, hisob-kitob (buxgalteriya), auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hamda huquq va bank-moliya sohasida faoliyat yurituvchi boshqa tashkilotlar a'zodir. Ushbu tashkilotlar bugungi kungacha AAOIFI tomonidan chiqarilgan shariat, buxgalterlik hisobi audit, axloq va boshqaruvga oid 100 dan ortiq standartlar (qoidalar)ni o'z faoliyatlari doirasida faol qo'llab kelmoqdalar.

Arab va ingliz tillari tashkilotning rasmiy tillari hisoblanadi.

## AAOIFI - at a glance!



### 1-rasm. AAOIFI faoliyati qisqa raqamlarda.

AAOIFI islom moliyasi tamoyillariga mos keladigan moliyaviy amaliyotlar va tartib-qoidalarni rivojlantirish, ularni tartibga solish va nazorat qilish orqali islom moliyaviy tizimini yanada barqaror qilishga intiladi. AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan standartlar islom moliyaviy institutlarining shaffofligini, ishonchliligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

AAOIFI ning 5 ta yo'nalish bo'yicha 119 ta standart va texnik bayonotlari mavjud, jumladan:

- Shariat standartlari – 59 ta
- Buxgalteriya standartlari – 36 ta
- Audit standartlari – 8 ta
- Boshqaruv standartlari – 15 ta
- Etika (axloq) standarti – 1 ta.

Hozirgi kunda AAOIFIning shariat va boshqaruv standartlari **Sarf, Kafolat, Havola, Murobaha, Ijara, Salam, Istisna, Mushoraka, Muzoraba; Akkreditiv, Juala, Sukuk, Qarz, Vakala, Takaful,**



**Tavarruq, Vaqf, Zakot, xodimlar yollash; an'anaviy bankni islom bankiga aylantirish, likvidlikni boshqarish, Shariat kengashlari** kabi mavzuni qamrab olgan.

### **O'zbekistonda islom moliyasi bozorining joriy holati**

O'zbekiston islom moliya bozorining rivojlanish bosqichida bo'lib, bu sohada katta potensial mavjud. Hozirda mamlakatda bir nechta islom moliya institutlari, jumladan, Hayot Ijara, Alif, Iman, Mabruk mikroredit tashkiloti, Hamkor Ijara, Trast Muamalat faoliyat ko'rsatmoqda va bu institutlar islom moliyasi tamoyillariga muvofiq moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga intilmoqda. Bundan tashqari, islom sug'urta bozorida ham jiddiy o'zgarishlar davri boshlangan. Hozirda UZARO, Apex Takoful kabi islom sug'urta tashkilotlari, Gross hamda Temiryo'l sug'urta tashkilotlarining "Takoful (islom sug'urtasi) darchalari o'z xizmat va mahsulotlarini aholi va biznes vakillariga taqdim etib kelmoqda. O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, islom moliya institutlari uchun malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro tajribani o'zlashtirish masalasi kun tartibidagi masalalar jumlasidandir. Bundan tashqari, 2022 yilda O'zbekistondagi "Islamic business and finance" kompaniyasi AAOIFI bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Ushbu shartnoma doirasida AAOIFI xalqaro standartlari (me'yorlari) asosida O'zbekistonda mutaxassislarni tayyorlash, sinovdan o'tkazish va sertifikatlash amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

### **AAOIFI standartlarini joriy etish istiqbollari**

AAOIFI standartlarini O'zbekistonda joriy etish bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

- 1. Shaffoflik va hisobdorlik:** AAOIFI standartlari islom moliya institutlarining moliyaviy hisobotlarini shaffof qilishga yordam beradi. Bu esa investorlar va mijozlar uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.
- 2. Shariatga muvofiqlik (Shariah compliance):** AAOIFI standartlari Islom shariati talablariga mos keladigan moliyaviy amaliyotlarni ta'minlaydi. Bu islom moliyaviy xizmatlarni qabul qiladigan mijozlar uchun muhimdir.
- 3. Xalqaro tan olinish:** AAOIFI standartlari global miqyosda tan olingan bo'lib, bu standartlarni joriy etish O'zbekiston moliya institutlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.
- 4. Investorlarni jalb qilish:** AAOIFI standartlari joriy etilgan moliya institutlari xalqaro investorlarga ko'proq jozibor hisoblanadi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

### **AAOIFI va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtasidagi hamkorlikning muhimligi**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatdagi moliyaviy tartibga soluvchi organ sifatida islom moliya institutlarining rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank va AAOIFI o'rtasidagi hamkorlik islom moliya sektorini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish:** AAOIFI standartlari asosida islom moliya institutlari uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023 dagi PQ-364-son qarorida Mikromoliya tashkilotlari Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq xizmat ko'rsatishlari uchun normativ-huquqiy baza ishlab chiqish nazarda tutilgan edi. Shu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni



ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida<sup>3</sup>gi qarori loyihasi ishlab chiqildi<sup>3</sup> va keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Ushbu qaror loyihasida aynan AAOIFI tajribasidan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, bu kelgusida islom bankchiligi bo'yicha milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun sezilarli qadam hisoblanadi.

**2. Malaka oshirish va ta'lim:** Markaziy bank va AAOIFI o'rtasida treninglar, seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali moliya institutlarining mutaxassis-xodimlarining malakasini oshirish mumkin. Bu islom moliya sohasida bilim va ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi. Chunki hozirda AAOIFI tomonidan xalqaro ekspertlarni tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar hamda sertifikatlashtirish tizimi yo'lga qo'yilgan. AAOIFIning mavjud sertifikatlari ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- Islom moliyasi bo'yicha sertifikatlangan professional buxgalter (CIPA)
- Islom moliyasi bo'yicha sertifikatlangan Shariat eksperti (CSE)
- Islom moliyasi bo'yicha sertifikatlangan Shariat auditori (CSA)
- Moliya hisobi standartlari bo'yicha mohirlik sertifikati (CPFAS)
- Shariat standartlari bo'yicha mohirlik sertifikati (CPSS)

**3. Konsultatsiyalar va tavsiyalar:** Markaziy bank islom moliya institutlari uchun islom moliyasiga aloqador masalalar bo'yicha AAOIFI tomonidan beriladigan konsultatsiyalar va tavsiyalardan foydalanishi mumkin. Bu moliyaviy xizmatlarning islom moliyasi tamoyillariga muvofiqligini ta'minlashda muhimdir.

**4. Hamkorlik loyihalari:** AAOIFI va Markaziy bank o'rtasida qo'shma loyihalar amalga oshirish, bu loyihalar orqali islom moliya xizmatlarini kengaytirish imkoni mavjud. Bunday loyihalar islom moliya institutlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **AAOIFI standartlarini joriy etishning amaliy masalalari**

AAOIFI standartlarini O'zbekistonda joriy etish bir qator amaliy masalalarni hal qilishni talab etadi:

**1. Qonunchilik va regulyatorning talablari:** AAOIFI standartlarini joriy etish uchun milliy qonunchilik va regulyatorning talablarini moslashtirish zarur. Bu jarayonni osonlashtirish uchun AAOIFI va Markaziy bank o'rtasida yaqin hamkorlik talab etiladi.

**2. Texnik Infrastruktura:** AAOIFI standartlarini joriy etish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish kerak. Bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhimdir.

**3. Malakali kadrlar:** AAOIFI standartlarini samarali joriy etish uchun malakali kadrlar tayyorlash zarur. Bu maqsadda Markaziy bank va AAOIFI o'rtasida trening va malaka oshirish dasturlari amalga oshirilishi lozim.

**4. Moliya institutlari uchun qo'llab-quvvatlash:** AAOIFI standartlarini joriy etishda moliya institutlarini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu jarayonda moliya institutlariga maslahatlar, texnik yordam va boshqa qo'llab-quvvatlash turlari taqdim etilishi lozim.

### **Xulosa**

AAOIFI va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash islom moliya sektorini rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik orqali islom moliya institutlarining shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligi oshadi. AAOIFI

<sup>3</sup> <https://regulation.gov.uz/oz/d/92036>



standartlarini joriy etish O'zbekiston moliya bozorini xalqaro darajada raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Bunda qonunchilik bazasini takomillashtirish, malaka oshirish va texnik infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim ishlar qilinishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, moliya institutlarini qo'llab-quvvatlash va maslahatlar taqdim etish jarayonini samarali tashkil etish zarur. AAOIFI va Markaziy bank o'rtasidagi hamkorlik orqali islom moliya sektori yanada rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. [www.aoofi.com](http://www.aoofi.com)
2. [www.islommoliyasi.uz](http://www.islommoliyasi.uz)
3. <https://regulation.gov.uz/oz/d/92036>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. [https://solutions.lseg.com/IslamicFinance\\_ICD\\_LSEG](https://solutions.lseg.com/IslamicFinance_ICD_LSEG)
6. <https://kun.uz/news/2022/05/24/islom-moliyasi-boyicha-nufuzli-xalqaro-tashkilot-ozbekiston-bilan-hamkorlik-ornatdi>
7. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

